

## TUSH MOTIVINING ZAMONAVIY HIKOYALARDAGI STILIZATSIYASI (NAZAR ESHONQUL HIKOYALARI MISOLIDA)

**Umarova Asila Alisher qizi**

Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti, Folklorshunoslik va  
dialektologiya mutaxassislik 2-kurs magistranti

***Annotatsiya:** Folklordagi asosiy motivlardan biri - tushning zamonaviy hikoyalardagi o‘rni Nazar Eshonqul hikoyalari misolida o‘rganildi. Tushning syujet tarkibidagi o‘rni, vazifalari, qo‘llanish maqsad va qo‘llash uslublari tahlil qilindi. Folklordagi va zamonaviy hikoyalardagi tush motivi o‘rinlari solishtirildi.*

***Kalit so‘zlar:** Tush, motiv, shomoniylilik, yadro, kompozitsion o‘rin, kompozitsion vazifa.*

Bilamizki, o‘zbek adabiyotida tush motividan foydalanish tajribasi an’anaviy bo‘lib, uning bosqichma-bosqich takomillashayotganidan mavjud manbalar guvohlik beradi. Xalq og‘zaki ijodidan boshlangan bu badiiy tajriba mumtoz ijodkorlar tomonidan yanada mahorat bilan davom ettirildi. Endilikda davr adabiyotida bu tajriba yanada boyidi. Tush epizodlari kompozitsion vosita sifatida yoki badiiy syujetning boshida keladi, yoki asar voqealarini o‘zaro bog‘lash va umumiy mazmun kasb etuvchi sifatida asar kulminatsion qismida aks etadi. Tush istilohi ilmiy jihatdan ko‘o o‘rganilgan bo‘lib, badiiy ijoddagi o‘rni Murtazoyev, X.Safarova, M.Narziqulova kabi boshqa olimlarning tadqiqotlari alohida e‘tiborni tortadi. Istamova Sh.ning “Badiiy asarda tushning poetik-kompozitsion vazifalari” ilmiy dissertatsiyasida esa tushning badiiy asarda tutgan vazifasiga urg‘u beriladi. Bu sohada J.Eshonqulning “O‘zbek folklorida tush motivi va uning badiiy talqinlari” nomi ostida qilingan ilmiy ishlari eng yirik izlanishlardan biri bo‘ldi. Olimning tadqiqiga ko‘ra inson tushlar olamini qadimdanoq sirli va qandaydur mavhum

kuchlarga aloqasi bor holat sifatida qaralgani takidlanadi. Shuningdek, qadimiy e'tiqodlarga ko'ra xalq orasidan tanlab olingdan rahnamo - shomon ham tushlar vositasida o'z kelajagiga ishoralar ko'ra olgan. Nazar Eshonqul hikoyalarida tush motiviga bot-bot murojaat qilinadi. Ularda ma'lum vazifa bor ekanligi yaqqol seziladi. Folklor asarlarida tush motivining qo'llanishi ko'proq bashorat, kelajakka ishorat tarzida bo'lsa, Nazar Eshonqul hikoyalarida ham shu kabi ma'no bilan bir qatorda, ruhiy tahlil, ong anglay olmagan voqelikni, ongosti sezimlari bilan ramziy ko'rsatilganiga guvoh bo'lamiz. Xususan, "Alpomish" dostonida Alpomish, Barchin va Qorajon bir vaqtning o'zida ayni bir tushni ko'radi: *"Alpomish cho'ponlarning qo'shxonasida uxlab yotdi. Kechasi fayzi sahar vaqtiga yetdi, sahar vaqti cho'ponlarning qo'shxonasida yotib bir tush ko'rdi. Izlab borayotgan Barchin yori, bul ham baxmal o'tovda yotib, subhi sodiq tuqqan vaqtda bir tush ko'rdi. Kashal g'orida, to'qson qalmoqning ichida Qorajon alp ham bir tush ko'rdi. Uchovining tushi oldin keyin, do'g'ulish ko'rdi"*<sup>1</sup>.

Bu tush motivini folklorshunos J.Eshonqul tahlil qilib shunday ta'rif beradi: "Ana shu tush motivida butun doston voqealari oldindan bashorat qilinib, ramzlar tilida bayon etiladi. Ya'ni doston syujetining butun keyingi voqealari rivoji ana shu parchada ko'rsatib beriladi. Ushbu motivdan so'ng doston voqealari tezlashib, syujetning keyingi halqalari uchun vaziyat yaratiladi. Qorajon ana shu tush tufayli Alpomish bilan do'st tutinadi. Sinovda o'zi tug'ishgan akalarining yonida turib emas, Alpomish tomonda turib davraga tushadi. Alpomishning do'sti, sirdoshi, yaqin ko'makchisiga aylanadi. Shuning uchun ham ana shu tush parchasini doston syujetining "yadrosi" deb qarash mumkin."<sup>2</sup>

Nazar Eshonqulning "Ajr" hikoyasida boshida kelgan tush motivi ham aynan shu vazifani bajargan desak xato bo'lmaydi. Xususan,

1 Алпомиш. Достон / Айтувчи Фозил Йўлдош ўғли. Нашрга тайёрловчи Т. Мирзаев. – Тошкент: Фан, 1999. – Б.144 – 145.

2 Эшонкулов Ж. Ўзбек фольклорида туш ва унинг бадий талқини. – Филол.фан д-ри... дисс. – Тошкент, 2010 – 292 б.

“– Esingdami, – derdi chol o‘g‘lining harsillab qolganiga yuragi achishayotgandek va atrofda mudhish sukunatdan cho‘chiyotgandek shivirlab, – o‘n yilcha oldin shu yo‘lni tush ko‘rgan eding. Aynan shu yo‘lni. O‘sha tushni sen bilan bir kechada men ham ko‘rgan edim – axir qonimiz bir-da! O‘shandayoq senga rahmim kelgan edi ham bag‘rim manavi daladay tutab ketgandi! Anavi tepalik ham kirgan edi, esingdami, o‘zing ham bir haftagacha o‘sha tushni eslab, xufton bo‘lib yurganding. Har qalay, shu tushingni sotib yemagandirsan? Yo uni ham biron narsaga almashtirib yubordingmi? Yo‘l, dala, tutun, o‘kiriklar, yig‘i-sig‘i – esingdami?”

– Esimda, – xirilladi o‘g‘il, – hammasi esimda.

– O‘shanda men ham bir necha kun uxlay olmagan edim bu yo‘ldan qanday o‘tarkansan deb. U tush emas, yozdig‘ edi. O‘sha kechasiyoq sening peshonangga yozib qo‘yilgandi. Men shundan qo‘rqan edim”.

Ko‘rinib turibdiki, asar boshidayoq yozuvchi qahramonlarga hukm o‘qilganligini, ularning kelajak taqdiri tushlari orqali bildirilganligini keltirib o‘tadi. Hikoya voqealarining keyingi “taqdir”i shu tushning ifodasi o‘laroq davom etadi. E’tiborli jihati shundaki, yuqorida ko‘rib o‘tgan dostonimizda ham, hikoyada ham qahramonlar aynan bir tushni bir xil vaqtda ko‘rishadi. Dostonda bu holatni chiltonlar ruhlarni uchrashtirishini sabab qilib ko‘rsatadi. Hikoyada esa bunga o‘xshash sababga duch kelmaymiz. Ammo bu motivning asar tarkibida aynan shu kabi o‘rin olishi tasodif emas. Bu tush emas, yozdig‘ edi, taqdirning hukmi edi. Ya’ni bir so‘z bilan aytganda hikoyamizning "yadro"si edi. "Ajr" hikoyasida real dunyoda inson tomonidan sodir etiladigan voqealar do‘zax, arosat, jannat mezonlari bilan baholanadi. Xalq og‘zaki ijodining asosi - ezgulik va yovuzlik kurashi, yovuzlikning jazosiz qolmasligi kabi mezonlari asarning bosh g‘oyasiga singdiriladi.

Zubayda ismli bir ko‘r qizni zo‘rlagan, oqibat qiz o‘zini o‘ldirgan. Eng mudhish jinoyati, o‘g‘il – padarkush. Yolg‘onchi dunyodagi mansab-martaba deb otasini o‘ldirgan, padarkush bo‘lgan, mustamlaka tuzumiga qul bo‘lgan o‘g‘il milliy ozodlik yo‘lida kurashga chiqqan otasini o‘ldiradi. “Biz faqat eski osoyishta hayotimizni qurolli kishilardan qurol bilan qaytarib olmoqchi edik. Bor gunohimiz

shu edi, boshqa hech narsa!”, – deydi ota. Bor-yo‘g‘i shu gunohi uchun qattol tuzum uni o‘z o‘g‘li qo‘li bilan o‘ldiradi. Tog‘da, odamlar ko‘zidan yiroqda, qaltis bir cho‘qqida otasi minib ketayotgan otga qamchi uradi. O‘z otasini oti bilan qo‘shib jarga qulatadi. Qilmishini boshqalardan yashirish uchun yig‘lab, egardan uchib chil-parchin bo‘lib ketgan ota jasadi ustiga ikki cho‘ponni boshlab keladi. Biroq el og‘ziga elak tutib bo‘lmaydi. El uni baribir “Padarkush” deb ataydi. Faqat u tuzumning katta mavqedagi kishisi bo‘lgani uchun, yashirincha, orqavarotdan aytishadi. O‘g‘il butun umr o‘zini padarkush deganlarni ta‘qib etadi. Qamatadi, o‘ldiradi. Ammo Xudoning muqarrar jazosidan qochib qutula olmaydi. Nurgali Sizdikbayev Nazar Eshonqulning aynan shu hikoyasini tahlil qilib, “undagi “o‘liklar dunyosi”ning ikki qutbi haqidagi diniy tasavvur hikoyaga badiiy maqsadini singdirish va undan davr uchun zarur xulosalar chiqarish, eng muhimi, asarning mifologik poetikasini kuchaytirish imkonini beradi” – deya ta‘kidlaydi. Asardagu “padarkush”ning fojiasi shundaki, u ana shu – do‘zax va jannatni unutadi, bu esa shunchaki xotirasizlik emas, balki Yaratganning jazosini unutish, bu jazodan qo‘rqmaslik, bu jazoni mensimaslik demakdir. Nazar Eshonqul aynan shuning uchun ham “Ajr” hikoyasida qahramonni Yaratganning huzurida – Ajr vodiysida tasvirlaydi, bu “Pulisirotni vodiysida padarkushning qilmishi guvohlari hozir bo‘lishadi – ular turli ovozlarda uning gunohlarini birma-bir sanash boshlanadi. Muhim jihati shundaki, Nazar Eshonqul bu guvohliklarni shunchaki qoralovchi monolog shaklida emas, balki turli detallar, turli holatlar, turli savollar tariqasida, badiiy bo‘yoqlar yordamida tasvirlab boradi.

Shuningdek, Nazar Eshonqulning “Xayol tuzog‘i” hikoyasida qahramonning yovuzlikni odat qilgan jamiyatdan ajralib borishi, ularga o‘xshab yovuz bo‘lib qolmaslik uchun tahlikada yurishi boshqa hikoyalar qahramonlaridan deyarli farq qilmaydi. Qahramonning ichki ruhiyati esa ba‘zan tushlar, ba‘zan esa xayoliy uydirmalari orqali ochib beriladi. Shu jihatdan o‘rganilganda esa, asar qahramonining tushida doim tobut, o‘lim, marhumlar, o‘z qabri boshida yig‘lash kabi epizodlar keladiki, bu bevosita “tanlangan shomon”ga o‘xshab ketadi. Boshqalardan farqli ravishda aynan uni “xuddi qabrdan chiqqandek tovushi sovuq” – o‘lim malikasi doim yo‘qlaydi, sekin asta o‘ziga “rom etib boradi”. Shu tariqa bu hikoyamiz qahramoni ham narigi olamni makon qiladi.